

КИНОЛОГ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ИНТЕГРАТИВ МАҚСАДЛАРДА ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

(Миллий кинология маркази ўқув-ўргатув жараёни мисолида)

Karimjonova Munavvar Ibragimovna,

*Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti
"Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, PhD, bojxona xizmati polkovnigi*

ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ИНТЕГРАТИВНЫХ ЦЕЛЕЙ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ КИНОЛОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

(На примере образовательного процесса Национального кинологического центра)

Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна,

*Независимый соискатель Университета общественной безопасности, доцент кафедры,
«Экономические и социальные дисциплины» Таможенного института, Таможенного
комитета PhD, полковник таможенной службы*

THE SIGNIFICANCE OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR INTEGRATIVE PURPOSES IN THE TRAINING SYSTEM OF CANINE STAFF (On the example of the educational process of the National Cynological Center)

Karimjonova Munavvar,

*Independent researcher of the University of Public Security, associate professor of the
Department of «Economic and Social Sciences» of the Customs Institute of the Customs Committee,
PhD, colonel of the customs service*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar
tizimida kinologlarni tayyorlash, o'quv-o'rgatuv jaraynida raqamli texnologiyalarni keng joriy
etish va yangi innovatsion ta'lim metodlarini qo'llashning obyektiv zaruriyati va uning mexanizmini
takomillashtirish borasida Milliy kinologiya markazi o'quv-o'rgatuv jarayoni misolida ilmiy taklif va
tavsiyalar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim metodlari,
"Blended learning", "Three-stage training", "The wheel of logical reasoning", kasbiy
kompetentlik, kinolog, instruktor.*

*Аннотация. Информация и рекомендации, касающиеся Национального кинологического
центра для решения вопросов, связанных с правительством Республики Узбекистан и
внедрением новых инновационных технологий и внедрением новых инновационных технологий.*

*Ключевые слова: цифровые технологии, инновационные методы обучения, "Blended
learning", "Three-stage training", "The wheel of logical reasoning", профессиональная
компетентность, кинолог, инструктор.*

*Abstract. In this article, the training of cynologists in the system of law-enforcement bodies of
the Republic of Uzbekistan, the wide introduction of digital technologies in the educational process,
the objective necessity of using new innovative educational methods and the improvement of its
mechanism, as an example of the educational process of the National Cynological Center, are covered
by scientific proposals and recommendations.*

*Key words: digital technologies, innovative educational methods, «Blended learning», «Three-
stage training», «The wheel of logical reasoning», professional competence, dog trainer, instructor.*

*Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda
rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida
zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga
qodir bo'lgan g'ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarni tayyorlash
ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifa hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion
texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.*

*Bugungi kunda ta'lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish,
raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda.*


Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohotlardan asosiy maqsad, O‘zbekiston Respublikasini rivojlangan davlatga aylantirishdir. Bu borada yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko‘lamini tushuna oladigan kadrlarga obyektiv zaruriyat ortib bormoqda. Buning uchun esa, jadal islohotlar, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ilg‘or innovatsiyalarni amaliyotga tadbiiq etishdir.

Tahlil va muhokamalar

Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ta‘lim jarayoniga tadbiiq etish borasida ustuvor islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 - son Qonuni [1], ushbu qonunda ta‘lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi prinsipi kiritilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni [2], ushbu farmon bilan bir qator - oliy ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kabi eng dolzarb vazifalar belgilanganligi buning yaqqol misolidir. Shuningdek, ushbu konsepsiyaga asosan fuqorolik oliy ta‘lim muassasalari bo‘ladimi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari bo‘lishidan qat‘iy nazar oliy ta‘lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni bajarishimiz obyektiv zaruriyat ekanligini taqozo etadi.

Ta‘lim tizimidagi tub islohotlarini negizida quyidagi zanjirli bo‘lgan ta‘lim tizimi integratsiyasini ta‘minlash va takomillashtirish talab etiladi (1-rasm).



1-rasm. Ta‘lim tizimi integratsiyasi

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2018-yilning 18-dekabridagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1029-sonli[3] qarorining qabul qilinishi, Markazning moddiy-texnika ta‘minotini yanada rivojlantirilishi bilan birga, balki bugungi tezkor davrda unga mos ravishda o‘quv va mashq jarayonlarini olib borish imkonini bermoqda.

Shu bois, nafaqat bojxona organlari tizimida balki, mamlakatimiz xavfsizligini ta‘minlashda barcha huquqni muhofaza qilish organlari uchun xalqaro ilg‘or tajribalar asosida kinologlarni tayyorlash o‘quv-o‘rgatuv jarayonlariga yangi innovatsion ta‘lim metodlarini qo‘llash asosida kinolog va instruktorlarning kasbiy kompetentligini oshirishni taqozo etmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib, Milliy kinologiya markazida kinologlarni tayyorlash borasida o‘quv-o‘rgatuv jarayonlarini yangi innovatsion ta‘lim metodlarni qo‘llash va uni amaliyotga joriy etish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Taklif: Hududiy boshqarmalarda mavjud jamlangan 188 nafar shtat birligidagi kinologlarni

Milliy kinologiya markazida malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun o'quv-o'rgatuv rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.

Natija: Kinologlarni yangi zamonaviy bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish, xalqaro tajribalar asosida nazariy va amaliy bilimlari ortishiga erishiladi.


2. Taklif: Kinologlarni "Blended learning" (aralash ta'lim), "Three-stage training" (Uch bosqichli o'qitish sxemasi), "The wheel of logical reasoning" (mantiqiy fikrlar charxpalagi) kabi yangi innovatsion ta'lim metodlari asosida o'quv-o'rgatuv jarayonlarini tashkil etish.

Blended learning (aralash ta'lim) konsepsiyasi "M-ta'lim" orqali nazariy bilimlarni berish asosida o'quv-o'rgatuv jarayonlarini tashkil etish orqali kinologlar uchun masofadan berilgan nazariy ta'limni yanada mustahkamlash, o'z ustida ishlashni osonlashtirish, o'zining reytingini belgilash, istalgan vaqtda shaxsiy mobil telefoni yoki cho'ntak kompyuterlaridan foydalangan holda 80-90 % o'zlashtirish natijasiga erishish imkonini beradi. Blended learning, ya'ni aralash ta'lim kinologlar tomonidan o'quv jarayonining tezligi, joyi, vaqti mustaqil nazorat qilinishi hamda instruktor bilan birga va online o'qish tajribasi integratsiyasini faraz qiladi.

Aralash ta'lim an'anaviy va masofaviy ta'lim texnologiyalarini birlashtiradi.

The wheel of logical reasoning (mantiqiy fikrlar charxpalagi) texnologiyasi kinologlarni nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonining mantiqiy fikrlovchisiga aylantiradi. Ushbu innovatsion texnologiya aqlni charxlash, xotirani mustahkamlash, jarayonga ijodiy yondashish, ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini oshirish imkonini beradi. Milliy kinologiya markazida malaka oshirishga kelgan har bir kinologni xizmat iti bilan amaliy mashg'ulotlar vidiotasvirga olib boriladi. Uning mashg'ulot jarayonida yo'l qo'yilgan xatolari barcha kinologlar tomonidan tasvir ko'rsatiladi va muhokama qilinadi. Kelgusida ushbu xatolarni oldini olish choralari o'z vaqtida ishlab chiqiladi.

O'quv-o'rgatuv jarayoniga "Three-stage training" (Uch bosqichli o'qitish sxemasi) ta'lim metodi quyidagi uchta bosqichda amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm. Uch bosqichli o'qitish sxemasi¹

Natija: O'quv-o'rgatuv jarayoni "Blended learning", "Three-stage training", "The wheel of logical reasoning" innovatsion ta'lim metodlaridan tezkor faoliyatlarda foydalanish asosida o'qitish metodikasi takomillashtirishga erishiladi. Ushbu metodlarni amaliyotda qo'llash asosida kinologlarning kasbiy kompetentligiga oid (kreativ, intellektual, axborot bilan ishlash) kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha xulosalar chiqarish imkoniyatiga erishiladi hamda xalqaro standartlar talablariga javob beradigan zamonaviy kinolog kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha mexanizmi yaratilishi ta'minlanadi.

3. Taklif: Milliy kinologiya markazida malaka oshirgan kinologlarga biriktirilgan xizmat iti samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etilgan ekspert-komissiyalari tomonidan quyidagi

baholash (har bir yo‘nalishlar bo‘yicha samaradorligini aniqlash bo‘yicha mezon ko‘rsatkichlari ishlab chiqish va baholash) ko‘rsatkichlarini aniqlash va xulosalar berish maqsadga muvofiq (1-jadval).

T/r	Shartli belgi	Mezon ko‘rsatkichlari	Baholash uchun - ballar
1.	S ₁	Xizmat itini kinolog tomonidan berilgan buyruqni qabul qilishi va uni bajarishi	1-2
2.	S ₂	Xizmat itini buyruq asosida to‘siq tomonga harakatlanishi	1-2
3.	S ₃	Xizmat itining buyruqsiz harakatlanishi	-1
4.	S ₄	Xizmat itining to‘siq oldida to‘xtab, turib qolishi	-1
5.	S ₅	Xizmat itining to‘siqqa harakatlanishida sustkashlik	-1
6.	S ₆	Xizmat itining mashqni bajarishida to‘siqqa tegishi	-1
7.	S ₇	Xizmat itini to‘siqni oshib o‘tgandan keyingi o‘zini ushlab turish holati	1-7
8.	S ₈	Xizmat itini kinolog bilan harakatlanishi	2
		kinolog bilan xizmat itini to‘g‘ri harakatlanishi	5
		kinologdan ilgarilab ketishi	-1
		kinologdan ortda qolishi	-1
9.	S ₉	kinolog tomonidan itni majburiy ushlab turilishi	-1
		Xizmat itini to‘siqdan sakrab o‘tganidan so‘ng, boshqa talab qilinayotgan holatni qabul qilmasligi	-1
		Xizmat itini to‘siqdan sakrab o‘tish ko‘nikmasini aniq va to‘g‘ri bajarishi	2
		Xizmat itini to‘siqqa sakramasdan, undan ortga qaytishi	-2
11.	S ₇	Xizmat itini to‘siqdan sakrashda yiqilishi, o‘ziga ishonchsizlik va qo‘rqoqligi	-1
12.	S ₇	Xizmat itini to‘siqdan sakrab o‘tishida unga jismoniy yordam ko‘rsatilishi	-3
		Jami ballar (max 20 ball)	+ 20 - 14

Izoh: O‘nta yo‘nalishning har biri bo‘yicha mezon ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi va 20 ballik bahoda xizmat iti baholanadi va o‘rtacha yig‘indisini bo‘lish orqali oxirgi natija quyidagi formula orqali aniqlanadi [4].

$$Sto'siq = \frac{S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 + S_7 + S_8 + S_9 - S_{10} - S_{11} - S_{12}}{12}$$

Qoniqarsiz baho olgan kinolog xizmat iti bo'yicha ekspert komissiya a'zolari tomonidan o'rganilib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish

va takomillashtirish to'g'risida"gi 21-son qarorining 4-ilovasida tasdiqlangan yaroqsiz itlarni sotish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari asosida O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlariga sotish taklif etiladi [4].

Natija: Bojxona organlaridagi kinologlarning xizmat faoliyatida xizmat itlaridan samarali foydalanish va jangovar shay, jismonan baquvvat, zotdor itlarni tanlash va birlashtirish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

4. Taklif: xizmat itini to'g'ri va ratsionlarga boy oziqlantirish muhim bo'lib, ularning xizmat faoliyati samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmat itlarini oziqlantirishda hayvon va o'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan ozuqalar ularning organizmiga kimyoviy ta'siri bo'yicha tarkibi tahlil qilinib eng maqbul bo'lgan ozuqa mahsulotlari tanlab olish hamda bugungi kunda oziqlantirish ratsionlarini o'zgartirib turish maqsadida xizmat itlarini super-premium sinfiga kiruvchi quruq ozuqalar bilan oziqlantirish maqsadga muvofiq.

Natija: Kinologlar xizmat faoliyati davrida ayniqsa tezkor qidiruv faoliyat va tadbirlarga jalb etilgan vaqtlarida ushbu super-premium sinfiga kiruvchi quruq ozuqalar bilan oziqlantirish oson va qulay bo'lib, xizmat itlarini oziqlantirish uchun ajratilgan kompensatsiya pul mablag'larini iqtisod qilishga erishiladi.

Ya'ni, tayyorlangan xizmat iti ko'nikmalarini shakllanganlik samaradorligini Стүсик bo'yicha to'plangan o'rtacha ballar hisobida:

- to'plangan o'rtacha ballari 15-20 balni tashkil etsa - "a'lo";
 - agar to'plangan o'rtacha ballar 10-15 ballarni tashkil etsa - "yaxshi";
 - o'rtacha to'plangan ballar 5-10 ballarni tashkil etsa - "qoniqarli";
 - o'rtacha to'plangan ballar 0-5 ballarni tashkil etsa - "qoniqarsiz";
- baholar qo'yish orqali aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637 - son Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1029-sonli qarori. 2018-yilning 18-dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida"gi 21-son qarori. 2021-yil 18-yanvar.

5. M.Karimjonova. Monografiya. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodologiyasini takomillashtirish masalalari. 2023-yil.

6. A.Jumanov, M.Yigitaliyeva. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan integrativ maqsadlarda foydalanish.

7. F.Qahhorov., Karimjonova va boshqalar. Turli vaziyatlarda xizmat itlarini tezkor hamda to'g'ri qo'llash uslubiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent:- 2023 y